ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MURODOVA FIRUZA JALOLOVNA

O‘ZBEK TILI HARBIY VATANPARVARLIK NUTQI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.521'373.45(355.01)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiavtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences

Murodova Firuza Jalolovna
O‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi 3

Муродова Фируза Джалоловна
Лексика узбекской военно-патриотический речи 25

Murodova Firuza Jalolovna
The lexicon of Uzbek military-patriotic speech 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 53

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MURODOVA FIRUZA JALOLOVNA

O‘ZBEK TILI HARBIY VATANPARVARLIK NUTQI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Fil4021 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	**Shofqorov Abdishukur Musayevich** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sobirov Abdulhay Shukurovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Tojiboyev Botir Raximjonovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “16” sentabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (367 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.:(99871) 281-42-44; faks: (99871)281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “23” 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil “23” 08 dagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

Q.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

S.Asbirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida harbiy soha tili, leksikasi, terminologiyasi va leksikografiyasi masalalarini o‘rganishga hamda shu asosda harbiy vatanparvarlik nutqini takomillashtirishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari hisoblangan kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika, yurislingvistika kabi oraliq lingvistik sohalar rivojlanayotgan bir paytda harbiy soha tili va nutqini o‘rganish zaruriyati shu sohaning lingvistik xususiyatlarini aniqlashni, ilmiy-nazariy jihatdan tizimli tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida ilm-fanning fanlararo integratsiyasi doirasida rivojlanayotganligidan kelib chiqqan holda harbiy soha tilini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, harbiy soha tili, nutqi va uslubiyatini ilmiy jihatdan o‘rganishga e’tibor ortgan. Bu ham aynan harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasini – uni tashkil qiluvchi birliklarning tabiati, ma’no guruhlari va ular orasidagi semantik munosabatlarni mukammal o‘rganish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan harbiy vatanparvarlik nutqidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Istiqlol tufayli turli sohalardagi yangilanishlarni inobatga olgan holda soha tillarini o‘rganish, jumladan, harbiy soha nutqini har tomonlama tadqiq qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda “…ko‘p millatli xalqimizni yuksak ma’rifatli jamiyat barpo etishdek ezgu maqsad yo‘lida jipslashtirish, yurtdoshlarimiz qalbiga yagona Vatan, umumiy farovon kelajak tuyg‘usini singdirishda o‘zbek tili birlashtiruvchi ahamiyatga egadir. Shu bois, Yangi O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, Uchinchi yuksalish davri poydevorini yaratishga qaratilgan tarixiy islohotlar jarayonida o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha belgilab olgan vazifalarimizni izchil davom ettirishimiz lozim”[1]. Shu nuqtayi nazardan tilshunoslikda yaratilayotgan qator izlanishlar, tadqiqotlar aynan ana shu talablardan kelib chiqadi. O‘zbek tilshunosligida harbiy soha leksikasi va terminologiyasi masalalariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, harbiy vatanparvarlik nutqi e’tibordan biroz chetda bo‘ldi. 2023-yil 14-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Biz harbiy merosimizni ichiga kirib o‘rganish nuqtayi nazaridan tizimli ishlar qilishimiz kerak”, deb ilgari surilgan g‘oyalar bejiz emas[2]. Shunga ko‘ra o‘zbek tilining harbiy vatanparvarlik nutqini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur dissertatsiyaning nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 17-

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 33 yilligi munosabati bilan o‘zbek xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2022, № 228.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xavfsizlik kengashining 2023-yil 14-yanvardagi kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. https://kun.uz/news/2023/01/13

fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida harbiy leksika va terminologiyasi tadqiqi masalalari D.G.Bagishov, G.N.Bagautdinova, Suer Eker, R.T.Safarovlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan[3]. Rossiyada XIX asr boshlaridayoq harbiy notiqlik masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilganligi S.E.Zverevning qator tadqiqotlarida yoritilgan[4]. Y.N.Tarasova, V.N.Seledsova, T.A.Starodubova, V.A.Belenchuk, R.V.Pashkov, L.N.Lazutkina, I.G.Ilyushin kabi olimlar harbiy-siyosiy notiqlik san’ati tarixi, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy notiqlikning ahamiyati kabi masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganlar[5]. G.Z.Apresyanning “Notiqlik san’ati” kitobida ijtimoiy-siyosiy notiqlik tarkibiga kiruvchi nutq ko‘rinishlari harbiy vatanparvarlik nutqi, uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar uchraydi[6].

O‘zbek tilshunosligida harbiy leksika va terminologiya masalalari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, H.Dadaboyevning nomzodlik dissertatsiyasi[7] va shu yo‘nalishdagi tadqiqotlari[8], “O‘zbek harbiy terminologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi[9], N.R.Axmatovning nomzodlik dissertatsiyasi[10]ning bir bobi,

---

[3] Багишов Д.Г. Военная терминология азербайджанского языка. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Баку, 1990. – С.22; Багаутдинова Г.Н. Традиционная военная лексика башкирского языка. Дисс… канд. филол. наук. – Уфа, 2001. – С.178; Süer Eker. Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji. – Ankara, 2007; Сафаров Р.Т. Военная лексика татарского языка. – Казан, 2015. – С.196.

[4] Зверев С.Э. Военная риторика Средневековья изд. – СПб.: Алетейя, 2012; Зверев С.Э. Военная риторика Древнего мира // https://www.livelib.ru/book/519382/editions/paper; Зверев С.Э. Военная риторика новейшего времени. Гражданская война в России // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000574704-voennaya-ritorika-novejshego-vremeni-grazhdanskaya-vojna-v-rossii-s-e-zverev; Зверев С.Э. Речевое воспитание военнослужащих // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000647361-rechevoe-vospitanie-voennosluzhaschih-s-e-zverev, 2013.

[5] Тарасова Е.Н., Селедцова В.Н. Военное красноречие. Хрестоматия. – Смоленск: Редакционно-издательский отдел Военной академии войсковой ПВО ВС РФ, 2006. – С. 56; Стародубова Т.А., Беленчук В.А. Роль военного красноречия в патриотическом воспитании военнослужащих // Современные гуманитарные исследования, 2010. ISSN: 1012-9103; Пашков Р.В. Военно-политическая теория организации сопротивления // Современные гуманитарные исследования, 2010. ISSN: 1012-9103; Лазуткина Л.Н., Ильюшин И.Г. Военно-политическое красноречие в древнем риме // Современные гуманитарные исследования, 2010. ISSN: 1012-9103; Сафаров Р.Т. Военная лексика татарского языка. – Казан, 2015. – С. 196.

[6] Апресян Г.З. Ораторское искусство. – М.: МГУ, 1978. – С. 7.

[7] Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.

[8] Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке // Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент, 1990. – С. 6-84.

[9] Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent: Sahhof, 2021.

[10] Ахматов.Н.Р. Лексика “Шайбани – наме” Мухаммада Салиха. Сравнительно-исторический словарь языка

H.Yodgorovning nomzodlik dissertatsiyasi[11], A.Kurganov[12] hamda M.M.Dustmurodovlarning[13] ilmiy izlanishlari o‘zbek tili harbiy leksikasi va terminologiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ishlardan hisoblanadi. Shuningdek, A.Aripovaning “Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari”[14] mavzusidagi tadqiqotida o‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqiga ijtimoiy-siyosiy notiqlik tarkibida to‘xtalib o‘tiladi.

Respublikamizning mustaqillikka erishganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilganligi, qator oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, “Temurbeklar” harbiy akademik litseylarining tashkil etilganligi, ularda o‘qish-o‘qitish ishlarining o‘zbek tilida (Davlat tilida) olib borishga kirishilganligi, shuningdek, harbiy sohalarda Davlat tilining qo‘llanishi, yoshlarni, xususan, harbiy xizmatchilarni milliy harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi qator omillar harbiy soha nutqining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini oshiradi. Shu ma’noda o‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi, uning tarkibi, taraqqiyot bosqichlari haqida muayyan xulosalar chiqarishda mazkur ilmiy ish dastlabki tadqiqotdir. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi sistema sifatida o‘rganilmagani, uning birliklari sistem leksikologiyaning tahlil usullari yordamida tadqiq etilmagani mazkur mavzu bo‘yicha maxsus tadqiqotning amalga oshirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Filologiyada fundamental tadqiqotlar va o‘qitishning innovatsion imkoniyatlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasining leksik-struktur, semantik-funksional xususiyatlari hamda mazkur leksikaga oid birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

harbiy vatanparvarlik nutqiga xos leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarni aniqlash hamda ushbu nutqda ayol va erkak nutqining ifodalanish usullari, ularning lingvopragmatik va kommunikativ jihatlarini ilmiy asoslash;

harbiy vatanparvarlik nutqida qo‘llanayotgan leksik birliklarning genealogik tarkibini tahlil qilish va ularning shakllanish manbalarini belgilash;

harbiy vatanparvarlik nutqi leksik birliklarining ma’noviy munosabatlari hamda murojaat shakllarini tizimli ravishda asoslash;

harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasiga xos ta’sirchanlikni ta’minlovchi leksik birliklarning ahamiyatini dalillash.

Tadqiqotning obyekti hozirgi o‘zbek tilidagi harbiy vatanparvarlik nutqlari va ular

---

“Шайбани – нама”. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.

[11] Ёдгоров Ё. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз… дисс. – Тошкент, 1996.

[12] Курганов А. Инглиз ва ўзбек тилларида ҳарбий терминлар қўлланилишининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док… (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 26.

[13] Dustmurodov M.M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok… (PhD) diss. – Toshkent, 2023.

[14] Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 7; Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2007. – Б. 53-55.

tarkibidagi leksik birliklardan iborat.

Tadqiqotning predmetini harbiy vatanparvarlik nutqi tarkibiga kiruvchi leksik birliklar, ularning ichki ma’no guruhlari hamda ular o‘rtasidagi semantik munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy, tavsifiy, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

harbiy vatanparvarlik nutqida ayollar nutqi ham harbiy-estetik mezonlarga mos shakllanishi, harbiy ayol va erkaklar nutqida gender tafovutlar kuzatilmasligi, ushbu nutqda “ayol” konsepti jasorat, fidoyilik va vatanparvarlik ruhini ifodalashi, unda genderlik emas, balki harbiylik va sadoqat ruhi ustuvorligi dalillangan;

harbiy vatanparvarlik nutqining semantik maydoni va lug‘aviy qatlamlari aniqlangan hamda turkiy, arabiy, forsiy va baynalmilal birliklar asosidagi terminlarning faol qo‘llanishi, o‘zlashgan lingvistik birliklarning uslubiy jihatlari isbotlangan;

harbiy vatanparvarlik nutqining semantik xususiyatlari, notiqlik vositasi sifatidagi ahamiyati hamda frazeologizmlarning ma’no va uslubiy funksiyasi o‘rganilib, ularning harbiy xizmatchilarni ruhiy tayyorlashdagi roli asoslangan;

harbiy vatanparvarlik nutqidagi leksik birliklarning leksik-semantik guruhlari, ularning sinonimik, antonimik, giponimik, graduonomik munosabatlari, nomlash usullari va leksik birliklarning funksional hamda semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasini tadqiq qilish, nazariy jihatdan chuqur o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasining lug‘aviy qatlamlari turkiy, arabiy, forsiy va ruscha-baynalmilal leksik birliklardan iborat ekanligi, mazkur leksikada harbiy terminlar faol qo‘llanishi dalillangan;

harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi tarkibidagi o‘ziga xos sistemani tashkil etgan ma’no guruhlari ochib berilgan;

harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasiga oid birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar va ularning turli semantik-uslubiy maqsadlarga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarni berishda qo‘llanilgan yondashuv usullari va aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati notiqlik turlari va ularning leksikasini nazariy o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochishi, ilmiy xulosalar va materiallar notiqlik san’ati, nutq madaniyati, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining “Filologiya va tillarni o‘qitish”, “O‘zbek tili va adabiyoti” ta’lim yo‘nalishida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”, “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, “Davlat tilida ish yuritish”, magistratura mutaxassisligida “Nazariy leksikologiya” fanlaridan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasiga oid olingan tadqiqot natijalari asosida:

harbiy vatanparvarlik nutqida ayollar nutqi ham harbiy-estetik mezonlarga mos shakllanishi, harbiy ayol va erkaklar nutqida gender tafovutlar kuzatilmasligi, ushbu nutqda “ayol” konsepti jasorat, fidoyilik va vatanparvarlik ruhini ifodalashi, unda genderlik emas, balki harbiylik va sadoqat ruhi ustuvorligi asoslangan ilmiy xulosalardan Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha web sayt va platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan.(Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat universitetining 2024-yil 7-noyabrdagi 1161/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada badiiy adabiyotlardagi harbiy vatanparlik nutqlarida “ayol” konsepti, uning jasorat va jangovarlikka qaratilgan o‘ziga xos nutqi, bunday nutq o‘zining jangovar ruhi, siyosiy keskinligi, vatanparvarlik mohiyati va tabiati hamda xalqqa sadoqat ruhida sug‘orilganligi bilan o‘ziga xosligi, unda genderlik xususiyatlarining namoyon bo‘lishiga oid fikrlar, shuningdek, an’anaviylik, vorisiylik, adabiy ta’sir, o‘zaro ta’sir masalalari yangi ma’lumotlar asosida tahlil qilingan va bu davr adabiyotini ilmiy jihatdan o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar nazariy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan hamda yangilangan;

harbiy vatanparvarlik nutqining semantik maydoni va lug‘aviy qatlamlari aniqlangan hamda turkiy, arabiy, forsiy va baynalmilal birliklar asosidagi terminlarning faol qo‘llanishi, o‘zlashgan lingvistik birliklarning uslubiy jihatlari, harbiy soha nutqi bo‘yicha Yevropa, Markaziy Osiyo hamda o‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar qiyosiy tahlilga tortilgan o‘rinlardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisiplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyihada foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 16-apreldagi 1042/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada harbiy nutq va vatanparvarlik nutqlari, ularning kommunikatsiyasi, ushbu nutqqa xos tantanavorlik, siyosiy iroda, qat’iyat, yakka va jamoaviy nutq foydalanuvchilar o‘rtasida ommalashish darajasiga doir materiallar bo‘lib xizmat qilgan;

harbiy vatanparvarlik nutqining semantik xususiyatlari, notiqlik vositasi sifatidagi ahamiyati hamda frazeologizmlarning ma’no va uslubiy funksiyasi o‘rganilib, ularning harbiy xizmatchilarni ruhiy tayyorlashdagi roli asoslangan hamda ularning Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini belgilashda notiqlikning o‘rni haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekistion Milliy teleradiokompaniyasining “Yoshlar” teleradiokanali AJ tomonidan tayyorlangan “Vatanparvar”, “Navbat bizga” teledasturlarda unumli

foydalanilgan. (“Yoshlar” ijodiy birlashmasi Ajning 2025-yil 15-apreldagi 14-02-56-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot ishida bugungi kunda harbiylarimiz tomonidan qo‘llanilayotgan murojaat birliklarining oziga xos tomonlari, harbiy mansab, harbiy unvon, harbiy joy, kiyim-kechak, harbiy transport vositalarining bugungi kunda qo‘llanilishiga oid berilgan tavsiyalar qo‘shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirish, har tomonlama tayyorgarlikka ega, kuchli va bilimli, halol, vatanparvar, mard va jasur harbiy xizmatchilarni tayyorlash, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodi, intellektual salohiyatini, ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini mustahkamlash, fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat hamda fīdoyilik bilan vijdonan bajarishda notiqlik, xususan, harbiy notiqlik dolzarb ekanligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyigan;

harbiy vatanparvarlik nutqidagi leksik birliklarning leksik-semantik guruhlari, ularning sinonimik, antonimik, giponimik, graduonomik munosabatlari, nomlash usullari va leksik birliklarning funksional hamda semantik munosabatlari ifodalangan fikrlaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2022-2023-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan.(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 205-yil 25-apreldagi 815-sonli ma’lumotnomasi). Natijada harbiy nutq leksik funksiyasi, nomlash usullari, turlari, ularning o‘ziga yondosh birliklar bilan munosabati, leksik tasnifi kabi materiallar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari jami 6 ta anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 130 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, e’lon qilinganligi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Harbiy vatanparvarlik nutqi asoslari”** deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafi *“Tilshunoslikda harbiy notiqlik va soha leksikasi masalalari”* haqidadir. Harbiy notiqlik san’atining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, harbiy terminologiyaning nazariy tadqiqi masalalari bugungi kunga qadar juda ko‘p olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, Rossiyada bu boradagi dastlabki tadqiqotlar XIX asrning birinchi choragidan yaratila boshlandi[15].

Rus olimi S.E.Zverev bir qator tadqiqotlarida[16] harbiy ritorika tarixi, uning asoschilari, harbiy ritorikaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning klassik va umumiy notiqlikdan farqi, rus harbiy ritorikasidagi kanonlar haqida qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. “Военная риторика в системе воспитания военнослужащих” maqolasida harbiy notiqlik faqat Yevropa davlatlarida rivojlanganini, Sharq davlatlarida esa harbiy notiqlik bo‘yicha hech qanday manbalar qoldirilmaganini qayd etadi[17]. Bu fikrlar esa Sharq davlatlaridagi harbiy notiqlik alohida tadqiqot sifatida dunyo tilshunosligida o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi.

Rus tilshunos olimasi H.A.Родина Rossiya harbiy xizmatchilarining nutq madaniyatini diaxronik aspektda o‘rganib, bu nutqlarni zamonaviy nutq ko‘rinishlari bilan qiyoslaydi. Harbiy xizmatda qo‘llanadigan murojaat shakllarini diaxron va sinxron tahlilga tortadi[18]. Rus tilshunosligida harbiy jargonlar masalalari bo‘yicha tilshunoslar O.A.Zaxarchuk hamda S.V.Lazarevichlar ilmiy tadqiqot olib borganlar[19]. Mazkur tadqiqotlarda harbiy jargonlar va ularning o‘ziga xosligi o‘rganilgan.

Turkiy tilshunoslikda ham harbiy leksika va terminologiya yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Suer Eker, Ugur Sahin, Ferdi Bulbul, Saffet Yilmaz kabi tilshunoslar turk tili harbiy leksikasi, uning tarixi, terminologiyasi muammolarini atroflicha tadqiq etganlar[20]. Suer Eker turk tilshunosligida harbiy terminologiya bo‘yicha o‘z maktabini yaratgan olim hisoblanadi. Uning “Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji” kitobida turk tili harbiy terminologiyasi tarixi, terminlar etimologiyasi, semantikasi, leksikasi bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan.

Ugur Sahin arab yozuvida yozilgan mo‘g‘ulcha lug‘atlardagi mo‘g‘ul va turk harbiy terminlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar, xuddi shu lug‘atlardagi turkcha muqobillarining qiyosini o‘rgangan bo‘lsa, Ferdi Bulbul turk tilining ilk yozma

---

[15] Зверев С.Э. Военная риторика в системе воспитания военнослужащих // Современные исследование социальных проблем. № 9 (17), 2012.

[16] Зверев С.Э. Военная риторика Средневековья изд. – СПб.: Алетейя, 2012; Зверев С.Э. Военная риторика Древнего мира // https://www.livelib.ru/book/519382/editions/paper; Зверев С.Э. Военная риторика новейшего времени. Гражданская война в России // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000574704-voennaya-ritorika-novejshego-vremeni-grazhdanskaya-vojna-v-rossii-s-e-zverev; Зверев С.Э. Речевое воспитание военнослужащих // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000647361-rechevoe-vospitanie-voennosluzhaschih-s-e-zverev, 2013.

[17] Зверев С.Э. Военная риторика в системе воспитания военнослужащих // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №9(17), 2012. www.sisp.nkras.ru

[18] Родина Н.А. Коммуникативная культура российского военнослужащего: исторический аспект (на примере особенностей речей русских военачальников) // The Newman In Foreign Policy № 57 (101) Vol. 6, ноябрь-декабрь 2020 г.

[19] Захарчук О. А. Тематическая классификация военного жаргона как отражение профессионального восприятия военнослужащих // Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 24 (239). Филология. Искусствоведение. Вып. 57. – С. 224–226; С.В.Лазаревич. Лексика и фразеология русского военного жаргона: Семантико-словообразовательный анализ. Дисс... канд. филол. наук. – М., 2000.

[20] Süer Eker. Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji. – Ankara, 2007; Uğur Şahin. Arap Harfli Çok Dilli Sözlüklerde Moğolca Askeri Terminoloji // Túrkologıa, №4(112), 2022. – S. ; Ferdi Bülbül. “Eski Türkçeden Orta Türkçeye Askeri Rütbe ve Unvanlar” [Military Ranks and Titles from Old Turkic to Middle Turkic] // Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, 58/1, (2018), – S. 155-173.

hujjatlari bo‘lgan Ko‘kturk bitiklarida va eski uyg‘ur tilida yozilgan eski turkiy matnlarida harbiy-ma’muriy martaba va unvonlar nomlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan. Turk tili harbiy leksikasi va terminologiyasi tadqiqi masalalari bo‘yicha У.A.Yakovlevning izlanishlari[21] ham tahsinga sazovor. Muallif ishda turk harbiy terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Shuningdek, T.B.Bayjanov qozoq tili, Ch.Garadjayev turkman tili, R.A.Beybutova qirg‘iz tili, D.G.Bagishov ozarbayjon tili, У.I.Karakayev no‘g‘ay tili, G.N.Bagautdinova boshqird tili, R.T.Safarov tatar tili harbiy leksikasi va harbiy terminologiyasini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganganlar[22].

O‘zbek tilshunosligida ham turkiy tillar leksikasi, xususan, eski o‘zbek tilidagi harbiy terminlar, qadimgi turkiy davlatlar qo‘llagan harbiy istilohlar, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi harbiy atamalar, O‘rta asr, XX asr, mustaqillik davridagi harbiy terminologiya, uning boshqa tillar bilan qiyosiy tahlili masalalari bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, harbiy terminologiyaga oid dastlabki tadqiqotlardan professor H.Dadaboyevning ilmiy ishlari[23] alohida diqqatga sazovor. Olim bir qancha turkiy davlat uyushmalaridagi mavjud harbiy terminlarning ildizini xoqonliklar davri bilan bog‘laydi va buni harbiy istilohlarning etimologik tahlili bilan asoslaydi. Xususan, hammualliflikda yaratilgan “Eski o‘zbek tili leksikasi muammolari”[24] nomli monografiyada VII-XVIII asrlar turkiy-o‘zbek tilidagi harbiy termin va unvonlar tarixiy-etimologik, semantik-funksional jihatdan tahlil qilingan[25]. H.Dadaboyev va H.Yodgorovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek harbiy terminologiyasi”[26] nomli o‘quv qo‘llanmada o‘zbek tili harbiy terminlar tizimi, taraqqiyot bosqichlari va hozirgi takomillashish davridagi fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar jamlangan.

O‘zbek tili harbiy leksikasi va terminologiyasi masalalari H.Yodgorovning “O‘zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi[27]da, N.R.Axmatovning “Leksika ”Shaybani-name” Muxammada Salixa” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida[28], A.Kurganovning “Ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminlar qo‘llanilishining lingvokulturologik xususiyatlari”[29] mavzusidagi tadqiqotida hamda M.M.Dustmurodovning “O‘rxun-Enasoy

---

[21] Яковлев Ю.А. Пути развития и способы образования турецкой военной терминологии. Дисс… канд. филол. наук. – М., 1969.

[22] Багишов Д.Г. Военная терминология азербайджанского языка: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Баку, 1990. – С. 22; Каракаев Ю.И. Устаревшая лексика ногайского языка: Автореф дисс... канд. филол. наук. –Казань, 1999. – С. 196; Багаутдинова Г.Н. Традиционная военная лексика башкирского языка. Дисс… канд. филол. наук. – Уфа, 2001. – С. 178; Сафаров Р.Т. Военная лексика татарского языка. – Казань, 2015. – С. 196.

[23]Дадабоев.Ҳ. Военная лексика в староузбекском языке: Дисс. автореф... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Дадабоев.Ҳ. Военная лексика в староузбекском языке // Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент, 1990, – С. 6-84.

[24] Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Тошкент: Фан, 1990.

[25] Dustmurodov M.M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok… (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 29.

[26] Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi.– Toshkent: Sahhof, 2021.

[27]Ёдгоров Ё. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз… дисс. –Тошкент, 1996.

[28] Ахматов Н.Р. Лексика “Шайбани – наме” Мухаммада Салиха. Сравнительно-исторический словарь языка” Шайбани – нама”: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.

[29] Курганов А. Инглиз ва ўзбек тилларида ҳарбий терминлар қўлланилишининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 26.

bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyalarida ham atroflicha o‘rganilgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida harbiy leksika va terminologiya masalalari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, harbiy vatanparvarlik nutqi, uning lingvistik xususiyatlari hali atroflicha tadqiq etilmagan.

Bobning ikkinchi paragrafi *“Ijtimoiy-siyosiy notiqlik va harbiy vatanparvarlik nutqi”* deb nomlanib, unda ijtimoiy-siyosiy notiqlik tarkibiga kiruvchi nutq ko‘rinishlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, til sistemasidagi o‘rni, leksik va semantik xarakteri va sintaktik munosabatlari o‘rganilgan. Ijtimoiy-siyosiy notiqlikka, asosan, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy masalalarga bag‘ishlangan miting, anjuman, qurultoy, parlament yig‘ilishi, diplomatik uchrashuv va harbiy-vatanparvarlik nutqlari kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy notiqlik o‘ziga xos mantiqiy va kompozitsion tuzilishi bilan boshqa notiqlik turlaridan farqlanadi. Bunday nutq turlarini tuzishda til vositalaridan foydalanish, avvalo, tanlangan mavzuning mazmun-mohiyati, ijtimoiy ahamiyati hamda kommunikativ vazifasiga bog‘liq[30] holda belgilanadi. Shu sababli ijtimoiy-siyosiy nutqlarning tuzilishida gap konstruksiyalari, gap bo‘laklarining ishtiroki, shuningdek, sintaktik aloqaga kirishmaydigan, biroq ekspressiv va mantiqiy ta’sirchanlikni ta’minlovchi sintaktik bo‘laklarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-siyosiy nutqlarda sodda yoyiq konstruksiyali gaplar, murakkab qo‘shma gaplar, murakkab undalmali gaplar, uyushiq bo‘lakli gaplar, inversiyaga uchragan gaplar ko‘p uchraydi. Xususan, murakkab undalmali gaplar ijtimoiy-siyosiy nutqlarda murojaat ifodalovchi undov va undalmalar ketma-ketligi orqali tinglovchilar diqqatini jalb etish va nutqning ekspressiv ta’sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi. Masalan: *“Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar! Qurolli Kuchlarimiz faxriylari! Muhtaram vatandoshlar!”* (Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.)

Ijtimoiy-siyosiy nutqlar tilshunoslikning funksional uslublari doirasida alohida o‘rin tutadi. Bu kabi nutqlarning asosiy vazifasi auditoriyani muayyan g‘oya, fikr yoki siyosiy-ijtimoiy qarashlarga ishontirish, da’vat etish va ruhlantirishdan iboratdir. Shu bois bu turdagi nutqlarda turli gap turlari va ularning uslubiy vositalari keng qo‘llanadi: *“Kelinglar, aziz do‘stlar, barchamiz yakdil bo‘lib, halol mehnatimiz, aql-u zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O‘zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik! Bu yo‘lda bobokalonimizning: “Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin” degan dono o‘gitlari doimiy shiorimiz bo‘lsin!..”* (I.A.Karimov. Амир Темур ҳақида сўз. 28-29-b.)

Mazkur ijtimoiy-siyosiy nutq uslubiy va kommunikativ jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Unda undov va buyruq gaplar tinglovchini ezgu maqsad sari da’vat etish uchun xizmat qilgan. Xususan, *“Kelinglar, aziz do‘stlar...”* shaklidagi murojaat va buyruq gap da’vat mazmunida ifodalangan bo‘lib, nutqning hissiy-ta’sirchanlik darajasini oshiradi. Nutqda Amir Temur o‘gitidan iqtibos keltirilishi esa ma’naviy meros va tarixiy an’anaga tayanish orqali omma ongiga ruhiy ta’sir o‘tkazish usulini ko‘rsatadi.

[30] Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. –Тошкент, 2007. – Б. 50.

Ijtimoiy-siyosiy notiqlikning qadimiy va mustaqil shakllaridan biri hisoblanadigan harbiy vatanparvarlik nutqi o‘zining jangovar ruhi, siyosiy keskinligi, vatanparvarlik g‘oyasi va xalqga sadoqat ruhidagi ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Tilshunos A.Aripova ham harbiy vatanparvarlik nutqini “…jangovar shaylikka qaratilgan, yuqori vatanparvarlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan, siyosiy xarakteri, vatani hamda o‘z xalqiga sadoqat ruhida sug‘orilganligi bilan xarakterlanadigan, shaxsiy botirlik, ommaviy mardlik ko‘rsatishni talab qiladigan nutqdir”[31], deb ta’kidlaydi. Harbiy vatanparvarlik nutqlari tarixan insonlarni kurashga safarbar etish, yangi g‘oya va maqsadlar sari ruhlantirish kabi vazifalarni bajargan. Shuningdek, bu turdagi nutqlar milliy birlik, jasorat, vatan himoyasi kabi ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Shu jihatdan, harbiy vatanparvarlik nutqlari insonlarni ruhlantirish va ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishga xizmat qiladigan ommaviy nutq shakli sifatida ahamiyatlidir. Harbiy nutq va vatanparvarlik nutqlarining muayyan nuqtada birlashishi harbiy vatanparvarlik nutqining siyosiy, ruhiy-ma’naviy va insonparvarlik xarakterga ega ko‘p funksiyali notiqlik shakli ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birgalikda ikki nutq turining elementlarini uyg‘unlashtirgan holda, jangovar ruh, milliy birdamlik va vatanparvarlik g‘oyalarini bir vaqtning o‘zida ruhlantirish, safarbar etish va da’vat qilish maqsadida yaratiladi. Ishda jtimoiy-siyosiy notiqlikdan harbiy vatanparvarlik nutqini ajratib olishda mazmuniy, pragmatik, uslubiy hamda vazifaviy-kommunikativ tamoyillarga asoslanildi.

Har qanday nutq ma’lum kommunikativ sifatlarga ega. Harbiy vatanparvarlik nutqining muhim kommunikativ sifatlari uning to‘g‘riligi, aniqligi, izchilligi, sofligi, ekspressivligi, boyligi, maqsadga muvofiqligi va shu bilan birga jiddiyligi, paralinglistik vositalardan xoliligi, ijro mexanizmi hamda ovoz dinamikasining kuchliligi bilan belgilanadi.

Harbiy vatanparvarlik nutqini kommunikativ jihatdan tahlil qilishda tadqiqotchi B.Sharipovning nutq tipologiyasi[32]ga asoslanildi:

– ifoda vositalari (tovush, harf, imo-ishora): *Qadam-m – bos!*

– sherikning mavjudligi yoki yo‘qligi: *Vzvod, guruh kolonnalari chizig‘iga – saf-lan!*

– nutq aktining yo‘nalishi (bir yoki ikki yo‘nalish): *Salom ofitserlar, – Ass-salom.*

– muloqotning individualligi yoki ommaviy xarakteri (nutqni idrok etuvchi subyektlar soniga qarab): *Biz kim – mulki Turon, amiri Turkistonmiz! Biz kim-millatlarning eng ulug‘i, Turkning bosh bo‘g‘inimiz!*

Harbiy vatanparvarlik nutqining kommunikativ samaradorligini ta’minlashda tovushlar akustikasi, sillabema, aksentema va intonemalarning o‘rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bevosita gender masalasi bilan bog‘liq bo‘lishi, tabiiy. Erkak kishi gapirganda uning tovushida 100 dan 7000 Gs gacha, ayol tovushida 200 dan 9000 Gs gacha bo‘lgan tebranishlar uchrashi fizika fanida ham aniqlangan[33]. Gender

[31] Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. –Тошкент, 2007. – Б. 55.

[32] Шарипов Б.Ш. О литературном языке // Русский язык в национальных школах. 2022. № 1.

[33] Zaxidov I.O., Alijanov D.A. 6-sinf fizika fanida tovush hodisalarini o‘qitish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN – P. 2181-1784.

tilshunosligida esa ayol va erkaklarning nutqiy xususiyatlari va ularning farqlari tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi G.Yusupovaning ta'kidlashicha, ayollar nutqi erkaklar nutqiga nisbatan ko'proq hissiyligi, samimiyligi, mayinligi bilan ajralib turadi. Ayollar nutqida muloyim murojaat shakllari, kinoya, istiora va tashbeh kabi ifodaviy vositalar keng qo'llanadi. Bizningcha, harbiy vatanparvarlik nutqida ayollar nutqiga xos bo'lgan yuqorida qayd etilgan xususiyatlar deyarli uchramaydi, aksincha, soha talabiga ko'ra ayol va erkaklarga xos nutqiy xususiyatlarning uyg'unlashuvi kuzatiladi. Harbiy ayollar nutqi ham erkaklar nutqi kabi lo'nda, maqsadga yo'naltirilgan, buyruq va ko'rsatma xarakteridagi gap tuzilmalaridan iborat. Ushbu holat, bizningcha, gender tilshunosligidagi muhim nazariyalardan biri – gender neytralligi konsepsiyasi doirasida tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir. Jangovarlik mazmuni ifodalangan ayollar nutqida an'anaviy ayollik nazokati va muloyimligi o'rnini erkaklarga xos mardonavorlik va qat'iyatlilik egallashi kuzatiladi. Ishda jasorati va mardligi bilan tanilgan ayol sarkardalar To'maris hamda Oysuluv obrazlari nutqi tahlilga tortilgan. Zero, vatanparvarlik va jangovar ruhga oid nutqiy ifodalar jins omiliga emas, balki ijtimoiy-milliy qadriyatlar va professionallik mezonlariga asoslanishi lozim. Mazkur nazariya jamiyatda gender tengligini ta'minlash va kommunikativ muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Turli tarixiy davrlarda davlat boshqaruvi, qo'shin safarbarligi va Vatan mudofaasi jarayonida askarlarni jangovar tayyorgarlikka chorlash hamda ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda notiqlik san'atining alohida o'rni bo'lgani kuzatiladi. Harbiy notiqlik esa, mohiyat e'tibori bilan, jangovarlikka chorlovchi xitob va da'vatlardan tashkil topadi. Shu bois qadimgi Rim notig'i Mark Tulliy Sitseronning "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda yoki yaxshi notiq bo'lish lozim" degan fikri ham bejiz ilgari surilmagan. Ushbu qarash notiqlik va vatanparvarlik tuyg'ularining tarixiy va kommunikativ jihatdan o'zaro uzviy bog'liqligini ifodalaydi[34]. Harbiy vatanparvarlik nutqi undov va buyruq gaplarning faol qo'llanishi, ishontirish, da'vat va g'alabaga chorlov kabi kommunikativ pragmatik maqsadlarga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Masalan: Chirchiq oliy tank qo'mondonligi bilim yurti general-mayyori nutqi: *"Aziz o'rtoqlar! Bugun bizning bilim yurtimizda katta bayram, qasamyod qabul qilish kuni. Bu ulug'vor vatanparvarlik belgisidir. Jangchining shaxsiy imzosi bilan muhrlangan qasamyod uning xizmat va hayot qonuni bo'ladi. Qasamyodga sodiqlik doimo erkaklarga xos xususiyat bo'lgan va hozirda ham xuddi shunday bo'lib qoladi..."* ("Sardor", O'zbekfilm. 2020)

Harbiy vatanparvarlik nutqi tadqiqida qasamyod matni ham o'ziga xos kompozitsion tuzilishi, qat'iy shakli va ma'lum qoliplariga ega nutq turi ekani aniqlandi. Tibbiyot sohasida Gippokrat qasamyodi inson hayoti va salomatligini asrash burchini belgilovchi eng qadimiy va mas'uliyatli qasamyod shakli bo'lib xizmat qilsa, harbiy qasamyod esa yurt va millat osoyishtaligi, Vatan tinchligi hamda jamiyat farovonligi oldidagi oliy darajadagi javobgarlikni anglatuvchi tantanali va rasmiy bayonot sanaladi.

[34] Mo'minov Sh., Mo'minov T. Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi // FarDU. Ilmiy xabarlar. –Farg'ona, 2023. № 3. – Б. 166-168.

Shu o‘rinda qasamyod atamasining nomlanishiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Harbiy sohada “Harbiy qasamyod” hamda “Vatanga qasamyod” kabi atamalari uchraydi. Mazkur ikki istilohning qo‘llanilishi va mazmun jihatidan o‘zaro farqlanishi tabiiy ravishda qiziqish va izoh talab etadi. Shu boisdan, qaysi atama maqsadga muvofiq va dolzarb ekani masalasini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish zarur. “Harbiy qasamyod” aniq bir soha, ya’ni harbiy xizmatga kirayotgan shaxsning o‘z zimmasiga oladigan xizmat burchi, intizomi, jangovar vazifalar va harbiy nizom talablariga sodiqligini bildirsa, “Vatanga qasamyod” esa kengroq ma’no kasb etib, shaxsning Vatanga muhabbati, sadoqati va uni himoya qilishga shayligi ifodalangan tantanali va’dasidir. Bunda harbiy xizmat talablaridan tashqari, milliy qadriyat, fuqarolik burchi va ma’naviy mas’uliyat ham mujassam.

Bobning uchinchi paragrafi *“Harbiy vatanparvarlik nutqining taraqqiyot bosqichlari”* deb nomlanib, unda turli davrlarga xos harbiy vatanparvarlik nutqi namunalari tahlil qilingan. Harbiy vatanparvarlik nutqi o‘zining uzoq tarixiga ega. Hatto, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish ”Avesto”da ham ushbu nutq namunalari uchraydi. Har qanday g‘alabaning zamirida sarkardalik mahorati bilan bir qatorda notiqlik san’ati, so‘zning ta’sir kuchi muhim o‘rin tutadi. Chunki jangga kirayotgan shaxslarning o‘ziga va g‘alabaga ishonchining ortishida, jismoniy va ruhiy quvvat bo‘ladigan so‘zning qudrati beqiyos. Shu bois xalq og‘zaki ijodining ilk namunalari, jumladan, “Alp Er To‘nga” dostoni, O‘rxun-Enasoy bitiklari kabi qadimiy yozma manbalarda ham Vatanga sadoqat, yurtga muhabbat va ona diyorga sodiqlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan harbiy vatanparvarlik nutqlari markaziy mavzu bo‘lib kelgan. Shuningdek, Turon tarixida Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi kabi mard va jasur sarkardalar nutqlari ijtimoiy ong va harbiy mafkuraning shakllanishida muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qilgan.

Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarning harbiy vatanparvarlik nutqlari ham alohida o‘rganishni taqozo etadi. Zero, Amir Temurning harbiy vatanparvarlik nutqlari ifodalarga boyligi, teranligi, qat’iyligi, aniqligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yuksakligi bilan ajralib turgan. Ta’sirchan nutqi bilan mashhur bo‘lgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayotida jangovarlik san’ati bilan bog‘liq, badiiy so‘zning ta’sir qudratini ko‘rsatib beruvchi qator jonli dalillar bor[35].

Shuningdek, ishda turli badiiy asarlardagi harbiy vatanparvarlik nutqlari tahlilga tortilgan bo‘lib, bu nutqlarda Vatanga sadoqat, unga bo‘lgan muhabbat va uni asrash tuyg‘usi ifodalangan.

Dissertatsiyaning 2-bobi **“Harbiy vatanparvarlik nutqining leksik strukturasi”** deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafida “*Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi tarkibi”* o‘rganilgan. Harbiy vatanparvarlik nutqi rasmiy-idoraviy uslubning asosiy talablariga tayangan holda, aniq, sodda va qolipli ifodaga ega bo‘lib, uning leksik tarkibini umumiste’mol leksikasi, harbiy terminlar tashkil etadi. Shunga

[35] Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. – Тошкент, 2007. – Б. 30; Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Ўзбекистон, 1959. – Б. 22-23.

ko‘ra harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi tarkibidagi leksik birliklar quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganildi: 1. Umumiste’mol so‘zlar. 2. Harbiy terminlar[36].

Ma’lumki, umumiste’mol leksika til leksik qatlamining asosiy qismini tashkil etib, keng kommunikativ imkoniyatlarga ega. Harbiy vatanparvarlik nutqida ham umumiste’mol so‘zlarning faol qo‘llanishi kuzatilib, ular jamiyat a’zolari uchun tushunarli bo‘lishi va kundalik nutqda keng iste’molda bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida harbiy terminlar alohida qatlamni tashkil etib, ular harbiy sohaga oid tushuncha, jarayon, holat va hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda o‘zbek tili harbiy terminologiyasining shakllanishi, adabiy til doirasida qo‘llanishi va tarixiy ildizlarini o‘rganish borasida biy qator tadqiqotlarning amalga oshirilganligi tahsinga sazovor.

Umumiste’mol leksikasi tilning asosiy va eng faol qatlamini tashkil etib, keng kommunikativ ehtiyojlarni ta’minlaydi. Ushbu leksika tarkibidagi so‘zlar harbiy terminologiya tizimida ham faol ishtirok etib, o‘zining asosiy leksik-semantik mazmunidan chekinib, rasmiy xususiyat kasb etishi kuzatiladi. Bunday holat, ayniqsa, harbiy terminologiyaning shakllanish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Harbiy terminologiya tarkibiga kirgan ayrim umumiste’mol so‘zlar maxsus harbiy mazmun kasb etib, uslubiy va semantik o‘zgarishga uchraydi. Jumladan, “topshiriq”, “harakat”, “xizmat”, “holat” kabi so‘zlar harbiy sohada maxsus atama sifatida ma’no kasb etgan holda termin darajasiga ko‘tariladi. Natijada, bu so‘zlar harbiy nutq uslubining terminologik bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, umumiste’mol leksikasining harbiy terminologiyaga integratsiyalashuvi harbiy nutq uslubining o‘ziga xos uslubiy, ekspressiv va semantik qirralarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Ma’lumki, Ikkinchi jahon urushidan keyin to‘rtta ikki tilli harbiy terminlar lug‘ati nashr etilgan bo‘lib,[37] ularning barchasida ruscha harbiy terminlarning o‘zbekcha muqobillari ikki va undan ortiq leksemalar bilan berilgan, sinonimik terminlar esa tartibga solinmagan. Masalan, harbiy soha leksikasida qo‘llanadigan *transheya* terminiga H.Dadaboyev va H.Yodgorovlar quyidagicha izoh berishadi: “*transheya* aslida fransuzcha (tranchee) bo‘lib, “mudofaa pozitsiyasining barcha o‘t ochish nuqtalarini birlashtiradigan, ensiz chuqur xandaq, snaryad va bombalardan himoya qiladigan xandaq” ma’nosida o‘zbek tiliga Ikkinchi jahon urushidan oldin o‘zlashtirilgan. 1981-yilda nashr etilgan “Ruscha-o‘zbekcha harbiy terminlar lug‘ati” va “Russko-uzbekskiy slovar” da *zovur* terminini *transheya* istilohining muqobili tarzida qo‘llash holatini to‘g‘ri deyish noto‘g‘ri[38]. Biz ham mualliflarning fikrlarini ma’qullagan holda munosabat bildirib o‘tmoqchimiz. “Zovur – zaxob yerlarni quritish,

[36] Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi materiallari sifatida: Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Ўзбекистон, 1959; Амир Темур Тарағай васияти. “Ўзбегим” тўп. – Тошкент, 1992; Аминов Б., Расулов Т. Ватан – юракдаги жавоҳир. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996; Каримов И.А. Миллий армиямиз – мустақиллигимизнинг, тинч ва осойишта ҳаётимизнинг мустаҳкам кафолатидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003; Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати. – Тошкент, 2004; Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний – услубий воситалари. – Тошкент, 2007; internetdagi manbalardan “Vatanparvar” gazetasi, shuningdek, ayrim o‘rinlarda o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlaridan hamda “Hayot” (2018), “Sardor” (2020), “Vatan ostonasi” (2022) , “Qo‘rg‘on” (2014) kinofilmlaridan foydalanildi.

[37] Ўзбекча - русча луғат. – Тошкент, 1958; Русча - ўзбекча ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент, 1981; Русча - ўзбекча ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент, 1989; Ҳарбий атамаларнинг русча - ўзбекча қисқача луғати. – Тошкент, 1993.

[38] Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent: Sahhof, 2021. – B. 174-175.

zaxni qochirish uchun qazilgan chuqur ariq; zakan”[39]. Odatda zovurlarning keng va chuqur bo‘lishi hamda ularda doimiy suv oqib turishini hisobga olinsa, bunday *zovurlarda* turib jang qilish noqulaylik tug‘diradi. Shu mulohazalarga ko‘ra, *transheya* terminiga zovur leksemasini muqobil deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Transheya, xandaq terminlari sinonimiyasi haqida shunday deyish mumkin. Xandaq: “1. Shahar, qal’a, qo‘rg‘on, mudofaa istehkomlari tashqi devori yonidan dushman o‘tolmasligi uchun gir aylanasiga qazilgan uzun chuqurlik. 2. O‘qlardan, bomba yoki snaryad parchalaridan saqlanish uchun qaziladigan ensiz, tor chuqurlik, okop. 3. Biror narsani asrash, saqlash va shu kabi maqsadda kovlangan chuqurlik, o‘ra[40].” Lug‘at maqolada *xandaq* so‘zining chuqurlik, o‘ra ma’nosi uchinchi o‘ringa chiqarilgan, harbiy ma’no ifodalovchi *dushman o‘ta olmasligi uchun qazilgan katta chuqurlik* va *okop* ma’nolari esa avvalgi o‘rinlarga chiqarilgan. Aslida, *xandaq* leksemasi arabcha bo‘lib, “o‘ra” ma’nosini ifodalaydi. Uning harbiy terminologiyada *transheya* terminining muqobili sifatida qo‘llanishini to‘g‘ri, deya olmaymiz. Chunki *xandaq* termini “biror maqsad, harbiyatda esa dushmanning ma’lum joydan o‘ta olmasligi uchun maxsus kovlangan hamda suv bilan to‘ldirilgan katta chuqurlik” ma’nosini ifodalab keladi. Demak, *transheya* terminini o‘zbek tilidagi *zovur* va *xandaq* leksemalari bilan almashtirib qo‘llash o‘zini oqlamasligi oydinlashdi. Bu esa terminlarni milliy til tizimiga, zamonaviy harbiy leksikografiya va kommunikativ ehtiyojlarga muvofiq holda qayta ko‘rib chiqish, ular orasidagi sinonimik birliklarni tartibga solish dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Bobning 2-paragrafi *“Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasining genealogik qatlamlari”* deb nomlanadi. Bu faslda harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamlar o‘rganilgan. Ma’lumki, o‘zbek tilining o‘z qatlami tarkibi quyidagilardan tashkil topadi: a) umumturkiy so‘zlar; b) umumturkiy so‘zlardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlar; v) boshqa til elementi negizida o‘zbek tilida o‘zbekcha affikslar qo‘shib yasalgan so‘zlar; g) o‘zbekcha so‘zlarga boshqa tillardan o‘zlashgan qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilingan birliklar. Xususan, o‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida *el, yurt, o‘lka, tinch, erkin, o‘q, qo‘ndoq, qo‘shin, qo‘mondon, qurol, miltiq, mo‘ljal, buyruq, yov, urush, ulug‘, bayram, bayroq, bayroqdor, burch, otish, chegara, qo‘riqlash* kabi umumturkiy ildizga ega so‘zlar faol qo‘llanadi. Mazkur leksika tarkibida tub so‘zlar bilan bir qatorda so‘z yasovchi affikslar vositasida hosil qilingan yasama so‘zlar ham faol qo‘llanilib, ularning har biri nutqning semantik boyligi va ta’sirchanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘z qatlamdagi harbiy so‘zlar o‘zining semantik imkoniyatlari bilan boshqa tildan kirib kelgan harbiy atamalarni ham mazmun jihatidan o‘z atrofida tizimlashtirib, ularga milliy-mafkuraviy ruh bag‘ishlaydi. Bu esa harbiy vatanparvarlik leksikasida milliy leksik qatlamning ustunligini va g‘oyaviy ma’no qatlamini namoyon etadi.

Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida arab, fors-tojik, rus va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar salmoqli qismni tashkil etadi. O‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida arab tilidan o‘zlashgan: *vatan, askar, zobit, istiqlol, ittifoq, iftixor, aslaha, intizom, mashq, mudofaa, mustahkam, mustaqil, nizom, harbiy,*

[39] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 2-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 157.
[40] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 4-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 383.

hujum, qasam, qism, quvvat, umumharbiy kabi; forscha-tojikcha: *ogoh, omad, ozod, ombor, mardona, panoh, parvoz, pinhon, posbon, rahbar, rahnamo, reja, rostgo‘y, sarosima, sarson, sarhad* kabi; rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan: *okrug, okop, orden, otryad, otpuska, ofitser, mayor, palatka, pozitsiya, poligon, polk, pogon, podpolkovnik, podporuchik, polkovnik, porox, pribor, priyomnik, prinsip, prikaz, professional, profilaktika, pulemyot, razvedka, ratsiya, patron, sapyor* kabi leksik birliklar faol qo‘llanadi. Bunday o‘zlashmalar harbiy vatanparvarlik nutqida denotativ ma’nosi bilan birgalikda turli konnotativ ma’nosi, o‘zbek xalqining ma’naviy merosi va qadriyatlar tizimida ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy va harbiy vatanparvarlik ruhini ifodalashi tahlil qilindi.

Bobning uchinchi paragrafi *“Harbiy vatanparvarlik nutqida ta’sirchanlikni ta’minlovchi leksik birliklar”* deb nomlangan. Harbiy vatanparvarlik nutqining emotsional-ekspressivligini oshirishda frazeologik birliklar va parafrazalar muhim lingvistik vositalar sifatida xizmat qiladi. Ular nutqning ta’sirchanligini ta’minlash, jangchilar va tinglovchilar qalbida qahramonlik, sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, harbiy nutq tarkibidagi frazeologizm va parafrazalar obrazlilik va ma’noning kuchaytirishga xizmat qilish orqali nutqning ta’sir doirasini yanada kengaytiradi. Harbiy vatanparvarlik nutqida *jon olib, jon bermoq, tamal toshini qo‘ymoq, jonini jabborga bermoq, ko‘ksi qalqon, non-tuzini yeb-ichmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, umri xazon bo‘lmoq* kabi ko‘plab frazemalar uchraydi. Masalan: *“Milliy armiyamiz tashkil topgan bu sanani bayram qilganda, Qurolli Kuchlarimizning tamal toshini qo‘ygan insonlarni, mard va fidoyi yurtdoshlarimizni minnatdorlik tuyg‘ulari bilan esga olish nafaqat tarixiy, ayni paytda, tarbiyaviy nuqtayi nazardan ham har tomonlama o‘rinli bo‘ladi”*. (Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. 24-b.)

Frazeologik birliklarning semantik-funksional va uslubiy xususiyatlarini maxsus o‘rgangan A.Mamatov ularni turli ma’no guruhlariga bo‘ladi. Shunga ko‘ra biz ham ishimizda, harbiy vatanparvarlik nutqida faol qo‘llanadigan frazeologik birliklarni mazmun jihatidan quyidagicha ajratib tahlil qilishga harakat qildik:

1. Vatanparvarlik ruhini ifodalovchi frazeologizmlar: ushbu guruhga *jonini bermoq, jonini tikmoq, jonini fido qilmoq* kabi frazeologik birliklar kirib, ular vatan uchun fidoyilik va sadoqatni ifodalaydi.

2. Jangovarlik va kurashchanlikni ifodalovchi frazeologizmlar: *xanjarini ishga solmoq, oyoqqa turg‘izmoq, bosh ko‘tarmoq* kabi iboralar bu guruhga kirib, jangovar tayyorgarlik va hujumkordik ruhini bildiradi.

3. Uyushqoqlik va jipslikni ifodalovchi frazeologizmlar: *bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir musht bo‘lmoq* iboralari jamlik va hamjihatlikni ta’riflaydi.

4. Yo‘qotish va qurbonlik mazmunini bildiruvchi frazeologizmlar: *hayotdan bevaqt ko‘z yumgan, joni uzilmoq* kabi frazemalar vatan uchun qurbon bo‘lgan qahramonlarning holatini anglatadi.

5. G‘alaba va ustunlikni ifodalovchi frazeologizmlar: *qo‘li baland kelmoq, ustun chiqmoq* kabi birliklar jangovar g‘alabani ta’riflaydi.

6. Jazolash va yov dushmanni yengish mazmunidagi frazeologizmlar: t*a’zirini bermoq, tor-mor etmoq* kabi frazemalar dushmanni yengish va jazolashni bildiradi.

7. Vaqt tushunchasini ifodalovchi frazeologizmlar: *boshidagi do‘ppini bir aylantirguncha, kechani kecha, kunduzni kunduz demay* kabi frazemalar vaqtning muhimligini ifodalaydi.

8. Joy va makon tushunchasini ifodalovchi frazeologizmlar: *kindik qoni to‘kilgan tuproq, bir qarich tuproq* kabi iboralar vatanning muqaddasligini ta’riflaydi.

9. Belgilar va xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlar: *ko‘z qorachig‘iday asramoq, tog‘ni ursa talqon qiladigan* iboralari muayyan belgilar va kuchli xislatlarni bildiradi.

10. Otlanish va shaylanish holatini ifodalovchi frazeologizmlar: *bel bog‘lamoq, astoydil kirishmoq* frazemalari kurash va harakatga tayyorgarlik mazmunini anglatadi.

Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida ham nutqning ekspressiv-ta’sirchanligini oshirish, auditoriyaning diqqat-e’tiborini jalb qilish va ruhiy ko‘tarinkilikni ta’minlashda parafrazalarning o‘rni alohida. Ular orqali vatan, xalq, armiyaning jasorati, fidoyiligi, dushmanning zulmi va zulmati badiiy-ta’sirchan shaklda ifodalanadi hamda nutqning emotsional-estetik qiymati ortadi. *“Prezident sifatida ishontirib aytamanki, davlatimiz va xalqimiz istiqlol posbonlari, osoyishta hayotimiz kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlarimizning bundan buyon ham o‘z konstitutsiyaviy va farzandlik burchlarini sadoqat bilan bajarishlari uchun shart-sharoit yaratishda g‘amxo‘rlik ko‘rsataveradi”*. (Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. 76-bet.)

Mazkur jumlalarda parafrazaik birliklar nutqning ta’sirchanligi va badiiy ifoda imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan. Uslubiy vosita hisoblangan parafrazalar nutqqa ko‘tarinki kayfiyat, ta’sirchanlik, tantanavorlik, obrazlilik kabi o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Ayniqsa, *vatan posbonlari, tinchlik qo‘rg‘onlar, yurt qalqonlari, mardi maydonlar* kabi parafrazalar harbiy xizmatchilarga, qolaversa, barcha er yigitlarga kuch bag‘ishlab, ularga Vatanni asrash, burchga sadoqatli bo‘lish mas’uliyatini ham yuklaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasining semantik-funksional xususiyatlari”** deb nomlanib, unda harbiy vatanparvarlik nutqi leksik birliklarining ma’noviy munosabatlari tahlilga tortilgan. Bobning birinchi paragrafi *“Harbiy vatanparvarlik nutqi leksik birliklarining ma’noviy munosabatlari”* deb nomlangan. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida leksik sistemani tashkil qiluvchi semantik makromaydonlarni alohida tadqiq qilishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar amalga oshirildi[41]. Ushbu ishlarda so‘zlar muayyan LSGlarga bo‘lingan holda o‘rganilgan. A.Sobirovning tadqiqotida o‘zbek tilining leksik sathi butun ko‘lami bo‘yicha sistemalar sistemasi sifatida tadqiq qilinib, maydonlarni tashkil qiluvchi LSGlar o‘rtasidagi munosabatlar yoritib berilganligi[42] muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

---

[41] Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 17; Кучкартаев И.К. Валентний анализ глаголов речи в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1977; Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентний анализ качественних прилагателних узбекского языка. Дисс… канд. филол. наук. – Ленинград-Бухара, 1983. – С. 128; Расулов Р. Глаголи состояния в узбекском языке и их валентност. Дисс... док. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С. 363; Расулов Р. Лексико-семантические группи глаголов состояния и их валентност. – Ташкент: Фан, 1991; Мусаев Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1992. – Б. 122.

[42] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш. Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2005.

Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi ham o‘ziga xos semantik maydon bo‘lib, u muayyan leksik-semantik guruhlardan tashkil topadi. Aniqrog‘i, harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi tarkibidagi leksik-semantik guruh birliklari o‘zaro: 1) sinonimik; 2) antonimik; 3) giponimik; 4) semantik graduonimik munosabatda kuzatiladi.

Nutqning ta’sirchanligi, mazmundorligi va uslubiy boyligini ta’minlashda sinonimlarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, harbiy vatanparvarlik nutqida sinonimlarning faol qo‘llanilishi nafaqat bayon etilayotgan fikrning ifoda kuchini oshiradi, balki nutqning obrazli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi, harbiy ruh va vatanparvarlik tuyg‘ularining kuchliroq yetkazilishiga xizmat qiladi: *“Ta’kidlash kerakki, milliy armiyamizning kuch-qudrati azmu shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag‘rikeng va olijanob xalqimizning birligi va hamjihatligidadir”*[43].

Sinonimik qatorlar turli sohalarda ishlatilishiga, qo‘llanish uslubiyatiga ko‘ra farqlanadi. Bu tipdagi sinonimlardan qay biri harbiy vatanparvarlik nutqida asosiy bo‘lib qolishi lozim, degan savol tug‘iladi. Shuning uchun ushbu tadqiqotda harbiy vatanparvarlik nutqida faol qo‘llanadigan *armiya, qo‘shin, lashkar, cherik; bayroq, yalov, alam, tug‘, baydoq; o‘lka, ona diyor, ona zamin, vatan, mamlakat, yurt; hudud, yer; vatandosh, yurtdosh* kabi bir qator sinonimik qatorlar tahlili bilan cheklanib, ularning semantik farqlari va uslubiy vazifalarini ochib berishga alohida e’tibor qaratildi. Sinonim qatorlarni tahlil qilishda leksemalarning semantikasi, harbiy vatanparvarlik nutqida ifodalanishi, uslubiy xarakteri, bo‘yoqdorligi, turli tillarga mansubligi, denotati va konnotatsiyalari tahlilga tortildi.

Tilshunos A.Sobirov “...semantik maydon nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, semantik maydon uzvlari o‘rtasidagi zidlanishlar ko‘lami antonimlar doirasiga qaraganda keng va ko‘p qirralidir”, – deydi[44]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasiga oid birliklar orasidagi zidlik munosabati haqida fikr yuritildi. Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida zidlik munosabati quyidagi leksik birliklar o‘rtasida namoyon bo‘ladi: sadoqat ↔ xiyonat, sotqinlik; do‘st ↔ dushman; xavfli ↔ xavfsiz; asosli ↔ asossiz, adolatli ↔ adolatsiz; aybdor ↔ aybsiz; hayotini saqlab qolish ↔ hayotdan mahrum qilish; shartnomani buzish ↔ shartnomaga rioya qilish; kelishuv ↔ nizo; yutuq ↔ kamchilik; tashqi ↔ ichki; barqarorlik ↔ beqarorlik; yaqin ↔ uzoq; tun ↔ kun; qarz ↔ farz. Masalan, “Axir biz hamma vaqt bir-birimizning *yutug‘imizdan quvonib, kamchiligimizdan kuyunib* kelganmiz-ku!”[45]

O‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqida leksemalarning *giperonim* (jins) va *giponim* (tur) munosabatlari asosida voqelanishi kuzatiladi. Masalan, *harbiy kiyim* giperonimi tarkibiga *sovut, kaska, shinel, furajka, kitel* kabi giponimlar kiradi. Xuddi shuningdek, *harbiy texnika* umumiy nomi ostida *tank, amfibiya, transportyor* kabi maxsus birliklar mavjud. Til imkoniyat va umumiylik munosabatlarini ongda mujassamlashtiradi, nutqda esa ko‘pincha umumiy leksemalardan foydalanish qulaylik tug‘diradi. Masalan, *harbiylarimiz* so‘zi barcha harbiy xizmatchilarni qamrab oluvchi

[43] “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi qonun. 2018 yil. 18-aprel. www.lex.uz

[44] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 152.

[45] Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати. – Тошкент, 2004. – Б. 52.

giperonim bo‘lsa, *askar, serjant, ofitser, general* kabi nomlar bu umumiy guruhning alohida vakillarini bildiradi.

Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasida *graduonimiya* hodisasi, ya’ni leksik birliklarning darajalanishi ham muhim o‘rin tutadi. Bu holat *harbiy unvonlar* tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi: *oddiy askar – yefreytor – serjant – leytenant – mayor – general – marshal* kabi. Ishda ushbu unvonlar tizimining darajalanishi va nutqdagi qo‘llanishi lingvistik jihatdan tahlil qilindi hamda harbiy terminlarning ichki semantik munosabatlari aniqlashtirildi.

Bobning ikkinchi paragrafida *“Harbiy vatanparvarlik nutqida harbiy qism, birlashma hamda mansab va unvon nomlarini ifodalovchi leksik birliklar”* o‘rganilgan. Mustaqillik yillarida milliy armiyaning tashkil topishi, harbiy-siyosiy mustaqillik ta’minlanishi va harbiy mafkura shakllanishi jarayonida harbiy vatanparvarlik nutqi ham tilshunoslikning dolzarb tarmoqlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, unda harbiy qism, harbiy birlashma hamda mansab va unvon nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning o‘rni nihoyatda muhimdir. Ushbu atamalar nafaqat harbiy boshqaruv tizimi va qurolli kuchlar tuzilmasini belgilab beruvchi vosita, balki milliy harbiy mafkura va vatan himoyasi g‘oyasining asosiy leksik ifodachisi hisoblanadi. Bu leksik birliklar tarixan asosan rus, lotin, yunon, fransuz va nemis tillari orqali o‘zlashgan bo‘lib, bugungi kunda harbiy-siyosiy, harbiy boshqaruv va vatanparvarlik targ‘ibotining asosiy nutqiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Harbiy qism nomlarini bildiruvchi *qo‘shin, batalon, shtab, ekipaj, raschot, bo‘linma, qism, rota, vzvod, poligon, garnizon, diviziya, gospital, kazarma* kabi birliklar leksik-semantik va funksional jihatdan tadqiq etilib, ularning nutqdagi qo‘llanishi misollar asosida dalillandi. Masalan: *“Barcha turdagi qo‘shinlarni tayyorlash va jangovar faoliyatini amalga oshirish... Birlashgan shtab, harbiy okruglar qo‘mondonligi, har qaysi bo‘g‘indagi komandirlarning asosiy vazifasi bo‘lishi zarur”* (Vatanparvar, 2008.12.01).

Shuningdek, *kapitan, mayor, general, leytenant, polkovnik, qo‘mondon, komandir, serjant* kabi mansab va unvon nomlari hamda *jangchi, zobit, aloqachi, kursant, ko‘ngilli, mergan* kabi harbiy sohaga taalluqli shaxs nomlari harbiy vatanparvarlik nutqining asosiy nominativ birliklari sifatida saf intizomi, jangovar ruh va vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda kommunikativ vazifa bajarishi aniqlangan.

Bobning uchinchi paragrafi *“Harbiy vatanparvarlik nutqida murojaat birliklari”* deb nomlangan. Tadqiqotning ushbu qismida harbiy vatanparvarlik nutqidagi murojaat birliklarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Aniqlanishicha, harbiy muloqotda murojaat shakllari yosh va ijtimoiy maqom emas, balki mansab va harbiy unvon hamda harbiy xizmat subordinatsiyasi talablariga - yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga va tenglar o‘rtasidagi nutqiy mezonlariga asoslanadi. Ma’lumki, harbiy murojaatlarda rus tili orqali kirib kelgan (товарищ) “o‘rtoq” murojaat shakli uzoq vaqt davomida qo‘llanib kelgan. “Товарищ” so‘zining etimologiyasiga nazar tashlasak, uning asli qadimgi turkiy “tovar” so‘ziga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy *“Devonu lug‘otit turk”* asarida “tovar” so‘zini “do‘st, safdoshlik”

ma’nosida qayd etgan[46]. Keyinchalik bu so‘z rus tiliga “товарищ” shaklida kirib, *safdosh, do‘st, safarbar sherik* ma’nolarini anglatgan.

Bugungi kunda harbiy tizimda muomala madaniyatini yuksaltirish maqsadida “Mening safdoshim”, “Askarim”, “Qo‘mondonim”, “Komandirim”, “Polkovnigim”, “Mayyorim” kabi murojaat birliklarining qo‘llanishi kuzatilmoqda. Nazarimizda, yuqoridagi kabi murojaat shakllari qisman turk va nemis harbiy leksik tizimi ta’sirida shakllangan. O‘zbek xalqining qadimiy an’analarida esa hurmat**,** izzat**,** sadoqat**,** matonat kabi tushunchalar yuqori qadrlangan. Murojaat shakllarida ham inson shaxsiga hurmat bildirish, mansab va maqomidan kelib chiqib, ehtirom ifodalash qadimdan mavjud bo‘lgan. Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek harbiy tili tizimida ham murojaat shakllari harbiy mansab va unvon tizimiga bog‘liq holda rasmiy va tartibli shakllarda amalga oshirilishi lozim**.** Shu sababli, ishimizda “товарищ” atamasi o‘rniga “hurmatli” so‘zidan foydalanish har jihatdan to‘g‘ri, degan tavsiya berishni ma’qul topdik.

Bu kabi murojaat birliklari Yangi O‘zbekiston armiyasi tizimida milliy ruhga mos murojaat uslublari joriy qilish, vatanparvarlik va safdoshlik munosabatlarini mustahkamlash hamda harbiy intizomni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Harbiy vatanparvarlik nutqi tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Harbiy vatanparvarlik nutqi jamiyatning ma’naviy-ruhiy birlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy armiyaning obro‘sini yuksaltirishda muhim vosita bo‘lib, globallashuv davrida milliy qadriyatlar va yurt tinchligini asrash g‘oyasini targ‘ib etishda o‘zining semantik boyligi va ta’sirchanligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Harbiy vatanparvarlik nutqi o‘zining jangovar ruhi, siyosiy keskinligi, vatanparvarlik mohiyati va xalqqa sadoqat tuyg‘usi bilan sug‘orilganligi sababli o‘ziga xos va mustaqil nutq turi hisoblanadi. Bu nutq turida harbiy intizom, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhi uyg‘unlashgan bo‘lib, u jamiyatning siyosiy, ma’naviy va ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu xususiyatlari va o‘ziga xos leksik-semantik tizim ekanligi bilan harbiy vatanparvarlik nutqi boshqa rasmiy nutq turlaridan ajralib turadi.

3. Harbiy vatanparvarlik nutqida gender neytralligi, ya’ni ayollar nutqida ham an’anaviy ayollarga xos nutq xususiyatlari hamda jangovar vaziyat taqozosidan kelib chiqadigan erkaklarga xos nutq belgilarining birgalikda namoyon bo‘lishi kuzatildi. Bu holat, avvalo, harbiy nutqning vaziyatga mos, jangovar ruhga va subordinatsiya tamoyiliga bevosita bog‘liqligi bilan izohlanadi.

4. Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi o‘zining tarkibiy va funksional xususiyatlariga ko‘ra, ma’lum leksik-semantik qatlamlardan tashkil topadi. Harbiy vatanparvarlik nutqi leksikasi tarkibi umumtil leksikasi, maxsus harbiy terminlar

[46] Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.

hamda o‘z va boshqa tillardan kirib, sohaga moslashgan o‘zlashma birliklardan iborat. Bu leksik qatlam harbiy xizmat, vatan himoyasi va mafkuraviy-tarbiyaviy ruhni ifodalovchi asosiy nutqiy vosita bo‘lib, zamonaviy harbiy kommunikatsiya va mafkuraviy ta’sirchanlikning samarali ifoda tizimini tashkil etadi.

5. Harbiy vatanparvarlik nutqining ekspressiv-emotsional salohiyatini kuchaytirishda frazeologik birikmalar va parafrazalar asosiy lingvistik vositalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat nutqning obrazliligi va ma’nodordigini ta’minlaydi, balki harbiy ruh, qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalarining ta’sirchan ifodasini yaratadi. Shu bois, harbiy nutq tarkibidagi bunday birliklar kommunikativ ta’sirchanlik va ideologik mazmunni yetkazishda muhim semantik-pragmatik ahamiyatga ega.

6. Harbiy vatanparvarlik nutqi leksik birliklarining ma’noviy munosabatlari o‘zaro sinonimik, antonimik, giponimik va graduonimik aloqalar asosida shakllanadi. Ushbu munosabatlar nutqning ta’sirchanligini oshirish, harbiy ruh va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish hamda mazmunni aniqlik va obrazlilik bilan ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu tariqa, harbiy vatanparvarlik nutqi leksik birliklarining ma’noviy munosabatlari butun leksik tizimning semantik sathini mustahkamlovchi asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

7. Harbiy vatanparvarlik nutqida harbiy qism, birlashma, mansab va unvon nomlarini ifodalovchi leksik birliklar muayyan iyerarxiya va subordinatsiya tamoyillariga asoslangan holda qo‘llanadi. Ular harbiy tizimning tuzilishi, tartibi va xizmat intizomini aks ettirib, nutqning rasmiyligi, aniqligi va tartiblanganligini ta’minlaydi hamda harbiy vatanparvarlik ruhini kuchaytiruvchi asosiy leksik qatlamni tashkil qiladi.

8. Harbiy vatanparvarlik nutqiga xos murojaat shakllari yosh va ijtimoiy maqom emas, balki mansab va harbiy unvon tizimiga asoslanadi. Bu holat harbiy nutq etiketi va mansab, lavozimidan kelib chiqib, murojaat shakllarining ma’lum iyerarxiyaga qat’iy bog‘liqligini belgilaydi va bu orqali harbiy muloqotning intizomiy va siyosiy mohiyatini ta’minlaydi.

9. Harbiy murojaat shakllarida rus tilidan o‘zlashgan “o‘rtoq” atamasi o‘rniga milliy an’ana va mentalitetimizga mos “hurmatli” murojaat shaklini qo‘llash taklifi harbiy vatanparvarlik nutqining milliy xususiyatlarini saqlash, nutq etikasi va muloqot madaniyatini yanada takomillashtirishda muhim lingvopragmatik vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa zamonaviy harbiy kommunikatsiya jarayonlarida milliy qadriyatlar asosida harbiy-subyektiv munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

МУРОДОВА ФИРУЗА ЖАЛОЛОВНА

ЛЕКСИКА УЗБЕКСКОЙ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИЙ РЕЧИ

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.Phd/Fil4021.

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Шофкоров Абдишукур Мусаевич** кандидат филологических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Собиров Абдулхай Шукурович** доктор филологических наук, профессор
	Тожибоев Ботир Рахимович доктор философии по филологическим наукам, доцент
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои «16» 09 2025 г. в «14» часов (Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, ул. Юсуфа Хос Ходжиба, дом 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университетеа узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирован под номером №367). Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, ул. Юсуфа Хос Ходжиба, дом 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Автореферат диссертации разослан «23» 08 2025 года.

(Протокол реестра № 3 от 23.08 2025 года)

Ш.Сирожиддинов
Председатель Ученого совета по присуждению ученых степеней, д.филол.н., профессор

К.Пардаев
Ученый секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, д.филол.н., профессор

С.Аширбоев
Председатель Научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, д.филол.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике ощущается большая потребность в изучении языка, лексики, терминологии и лексикографии военной сферы, а также в совершенствовании патриотической военной речи на этой основе. В то время как развиваются такие современные направления лингвистики, как компьютерная лингвистика, социолингвистика, психолингвистика, юрислингвистика и другие междисциплинарные области, становится необходимым изучение языка и речи военной сферы, что требует выявления её лингвистических особенностей и системного научно-теоретического анализа.

С учётом того, что в мировой лингвистике развивается междисциплинарная интеграция науки, возрастает внимание к научному изучению языка, речи и стилистики военной сферы, а также к разработке научных основ совершенствования военного языка. Это, в свою очередь, указывает на необходимость глубокого изучения лексики патриотической военной речи – природы единиц, её составляющих, смысловых групп и семантических отношений между ними. С этой точки зрения выявление проблем, существующих в патриотической военной речи, и их устранение является актуальной задачей.

Как отметил уважаемый Президент нашей страны Ш.М. Мирзиёев в своём праздничном обращении к узбекскому народу по случаю 33-й годовщины придания узбекскому языку статуса государственного: «... узбекский язык имеет объединяющее значение в деле консолидации нашего многонационального народа на пути к построению высокообразованного общества, в привитии соотечественникам чувства единой Родины и общего благополучного будущего. Поэтому в процессе исторических реформ, направленных на всестороннее развитие Нового Узбекистана и создание фундамента Третьего периода Возрождения, мы должны последовательно продолжать выполнение задач, намеченных по развитию узбекского языка»[47]. С этой точки зрения ряд исследований и научных изысканий, проводимых в лингвистике, вытекает именно из этих требований. Несмотря на то, что в узбекском языкознании были проведены различные исследования, посвящённые лексике и терминологии военной сферы, патриотическая военная речь до сих пор оставалась несколько вне поля пристального внимания. Благодаря независимости и с учётом обновлений в военной сфере, изучение военной речи и её всесторонний анализ являются актуальными научными задачами. Недаром президент нашей страны на расширенном заседании Совета безопасности 14 января 2023 года особо подчеркнул: «Мы должны системно работать над глубоким изучением нашего военного наследия»[48]. В этой связи изучение патриотической военной речи узбекского языка приобретает важное научно-практическое значение. Это, в свою очередь, подчёркивает актуальность данной диссертации.

[47] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 33 yilligi munosabati bilan o‘zbek xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2022, № 228.
[48] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xavfsizlik kengashining 2023-yil 14-yanvardagi kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. https://kun.uz/news/2023/01/13

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года; Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года; в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-139 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований узбекского языка и литературы» от 11 марта 2020 года и и в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности темы.

В мировой лингвистике вопросы изучения военной лексики и терминологии всесторонне исследовались такими учёными, как Д.Г. Багишов, Г.Н. Багаутдинова, Суэр Экер, Р.Т. Сафаров[49]. В исследованиях С.Е.Зверева освещается тот факт, что в России учёные начали заниматься вопросами военного ораторского искусства с начала XIX века[50]. Такие учёные, как Ю.Н. Тарасова, В.Н. Селедцова, Т.А. Стародубова, В.А. Беленчук, Р.В. Пашков, Л.Н. Лазуткина, И.Г. Ильюшин, проводили научные исследования по вопросам истории военно-политического красноречия, а также значению военного ораторского искусства в воспитании военнослужащих в духе патриотизма[51]. Г.З.Апаресян в своей книге «Искусство

[49] Багишов Д.Г. Военная терминология азербайджанского языка. Автореф. дис… канд. филол. наук. – Баку, 1990. – С.22; Багаутдинова Г.Н. Традиционная военная лексика башкирского языка. Дисс… канд. филол. наук. – Уфа, 2001. – С.178; Süer Eker. Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji. – Ankara, 2007; Сафаров Р.Т. Военная лексика татарского языка. – Казан, 2015. – С.196.

[50] Зверев С.Э. Военная риторика Средневековья изд. – СПб.: Алетейя, 2012; Зверев С.Э. Военная риторика Древнего мира // https://www.livelib.ru/book/519382/editions/paper; Зверев С.Э. Военная риторика новейшего времени. Гражданская война в России // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000574704-voennaya-ritorika-novejshego-vremeni-grazhdanskaya-vojna-v-rossii-s-e-zverev; Зверев С.Э. Речевое воспитание военнослужащих // livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/1000647361-rechevoe-vospitanie-voennosluzhaschih-s-e-zverev, 2013.

